XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 17-aprel VI-83-68-8-0-K/24 Surxondaryo viloyati

Surxondaryo viloyatida tashqi reklama va axborot obyekt (konstruksiya)larini joylashtirish va ulardan foydalanish tartibi, tashqi reklama va axborot obyekt (konstruksiya)larining namunaviy to‘plami va tashqi reklama va axborot obyekt (konstruksiya)larini o‘rnatish hamda ularda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun yagona oylik yig‘im miqdorini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24-moddalariga asosan, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 428-son qaroriga asosan Surxondaryo viloyatida tashqi reklama va axborot obyekt (konstruksiya)larini joylashtirish va ulardan foydalanish tartibi, tashqi reklama va axborot obyekt (konstruksiya)larining namunaviy to‘plamlarini tasdiqlash hamda tashqi reklama va axborot obyekt (konstruksiya)larini o‘rnatish hamda ularda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun yagona oylik yig‘im miqdorini belgilash maqsadida, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish viloyat boshqarmasi boshlig‘i F.Samatovning ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda tashqi reklama va axborot obyekt (konstruksiya)larini o‘rnatish hamda ularda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun yagona oylik yig‘im miqdorlari 1-ilovaga muvofiq, hududlarning zonalarga bo‘linishi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tashqi reklama va axborot obyekt (konstruksiya) larini o‘rnatish hamda ularda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun yagona oylik yig‘im miqdorlari kuchga kirgan kundan boshlab, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining 2020-yil 26-iyundagi 90/VI-9-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan nazorat olib borish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror imzolangan kundan boshlab 15 kundan keyin kuchga kiradi.

Sessiya raisi



CHORIYEV ABDURAIM
RAVSHANOVICH

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 17-apreldagi
VI-83-68-8-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyatida tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi)ni o‘rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo‘lgan huquq uchun oylik yig‘imlar miqdori

I. Yer uchastkalarida o‘rnatilgan alohida turuvchi konstruksiyalar

№	Reklama obyektlarining turlari	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdorining foizi	Koeffitsiyentlar			
				Zona 4	Zona 3	Zona 2	Zona 1
1.1	kichik formatdagi (2,19 kv.m.gacha)	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2
1.2	o‘rta formatdagi (2,2 kv.m.dan 12 kv. m.gacha)	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2
1.3	katta formatdagi (12 kv.m.dan 18 kv. m.gacha)	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2
1.4	o‘ta katta formatdagi (18 kv.m.dan ortiq)	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2
1.5	0,3 x 0,3 metrdan katta hajmli-fazoviy qurilma	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2

II. Binolar, inshootlar va qurilmalardagi reklama konstruksiyalari

№	Reklama obyektlarining turlari	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdorining foizi	Koeffitsiyentlar			
				Zona 5	Zona 4	Zona 3	Zona 2
2.1	binoning tashqi qismida joylashtirilgan konstruksiyalar	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2
2.2	maydonli to‘siqlardagi konstruksiyalar	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2
2.3	ko‘priklarda, yo‘l o‘tkazgichlar, quvur liniyalarida o‘rnatilgan konstruksiyalar	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2
2.4	markazlar, vitrajlar	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2
2.5	hajmli-fazoviy qurilma	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2
2.6	tom usti reklama konstruksiyalari	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2
2.7	konsolli panellar	dona	5	0,5	0,7	0,9	1,2

III. Tashqi reklama vaqtinchalik obyektlari (konstruksiyalari)

№	Reklama obyektlarining turlari	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdorining foizi	Koeffitsiyentlar			
				Zona 5	Zona 4	Zona 3	Zona 2
3.1	qurilish maydonchalaridagi 2 kv.m va undan ko‘p bo‘lgan vaqtincha reklama to‘siqlari	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2

3.2	1 kv.m va undan ortiq bo‘lgan peshlavhalar	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2
3.3	nostandart shakldagi konstruksiyalar	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2
3.4	promoqurilmalar	kv.m	5	0,5	0,7	0,9	1,2

IV. Yorug‘li-diodli monitorlar, elektr ekranlar (video ekranlar, displeylari va boshqalar)

№	Reklama obyektlarining turlari	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdorining foizi	Koeffitsiyentlar			
				Zona 5	Zona 4	Zona 3	Zona 2
4.1	yorug‘li-diodli monitorlar, elektr ekranlar	kv.m	10*	1,5	2,0	2,5	3,0

**masofadan boshqarish tizimiga ulangan har bir tashqi reklama obyektiga ulangan oydan boshlab 12 oy davomida yig‘im summasining 10 foizini miqdorida rag‘batlantirish beriladi, bu summa har bir obyekt uchun 500 ming so‘mdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda hisoblanadi.*

V. Binolarda joylashgan yorug‘li fasadlar

№	Reklama obyektlarining turlari	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdorining foizi
5.1	mediafasadlar	kv.m	5**

***tijoriy reklama joylashtirilgan har bir kuni uchun hisob-kitobi asosida olinadi.*

VI. Ko‘cha mebeli, nostatsionar savdo obyektlari va bekatlar

№	Reklama obyektlarining turlari	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdorining foizi
6.1	ko‘cha mebeli	dona	5
6.2	avtobus to‘xtash bekatlari	kv.m	5
6.3	nostatsionar savdo obyektlari	dona	5

VII. Transport vositalarida joylashtirilgan tashqi reklama

№	Transport vositalarining toifalari	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdorining foizi
7.1	M1 - yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan va haydovchining o‘rindig‘idan tashqari o‘rindiqlar soni 8 tadan oshmaydigan avtotransport vositalari	dona	100
7.2	M2 - yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining o‘rindig‘idan tashqari o‘rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 t gacha bo‘lgan avtotransport vositalari	dona	200
7.3	M3 - yo‘lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining o‘rindig‘idan tashqari o‘rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 t dan ko‘p bo‘lgan avtotransport vositalari	dona	250
7.4	N1 - yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari	dona	300
7.5	N2 - yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan ortiq, lekin 12 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari	dona	400
7.6	N3 - yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 12 t dan ortiq bo‘lgan avtotransport vositalari	dona	500

7.7	O1 - eng katta vazni 0,75 t dan oshmaydigan tirkamalar	dona	100
7.8	O2 - eng katta vazni 0,75 t dan ortiq, lekin 3,5 t dan oshmaydigan tirkamalar	dona	150
7.9	O3 - eng katta vazni 3,5 t dan ortiq, lekin 10 t dan oshmaydigan tirkamalar	dona	200
7.10	O4 - eng katta vazni 10 t dan ortiq bo‘lgan tirkamalar	dona	300

VIII. Tashqi reklama obyektlari (konstruksiyalari)ni demontaji uchun kompensatsiya

№	Reklama obyektlarining turlari	O‘lchov birligi	Bazaviy hisoblash miqdorining foizi
8.1	yer uchastkalarida o‘rnatilgan alohida turuvchi statik konstruksiyalar	kv.m***	100
8.2	binolar, inshootlar va qurilmalardagi statik reklama konstruksiyalari	kv.m***	150
8.3	yer uchastkalarida o‘rnatilgan alohida turuvchi yorug‘li-diodli monitorlar, elektr ekranlar	kv.m***	150
8.4	binolar, inshootlar va qurilmalardagi yorug‘li-diodli monitorlar, elektr ekranlar	kv.m***	200
8.5	ko‘cha mebeli	dona	100

****minimal demontaj hajmi 4 kv.m. Agar demontaj qilingan obyekt 4 kv.m dan kam bo‘lsa, kompensatsiya miqdori 4 kv.m maydon uchun hisoblab chiqiladi.*

To‘lov miqdori quyidagicha belgilanadi:
T = B x M x K / 100
bunda: T - 1 oyda 1 kv. metr uchun yig‘im miqdori;
B - amaldagi bazaviy hisoblash miqdori stavkasi;
M - bazaviy hisoblash miqdorining belgilangan foizi;
K - hududiy zonalar koeffitsiyenti.

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining
2024-yil 17-apreldagi
VI-83-68-8-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**Tashqi reklama obyekt (konstruksiya) lariga
reklamani joylashtirishda hududlarning zonalarga bo‘linishi**

№	Hududlar	Zona
1	Termiz shahri	1-zona
2	Termiz tumani	
3	Denov tumani	2-zona
4	Jarqo‘rg‘on tumani	
5	Sho‘rchi tumani	
6	Angor tumani	3-zona
7	Uzun tumani	
8	Sariosiyo tumani	
9	Oltinsoy tumani	
10	Boysun tumani	
11	Qumqo‘rg‘on tumani	
12	Sherobod tumani	
13	Qiziriq tumani	4-zona
14	Bandixon tumani	
15	Muzrabot tumani	